

EKSPERIMENTAL ISHEMIYA MODELIDA YURAK MITOXONDRIYASI YUQORI O‘TKAZUVCHAN PORASIGA SOFOROFLAVONOZID VA NARSISSIN FLAVONOIDLARNING TA’SIRI

^{1,2}Pozilov M.K., ³Abduraxmonova M.J., ⁴Mirzaolimov E.I. ⁴Nishanbayev S.Z.

¹Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

²O‘zMU huzuridagi Biofizika va biokimyoi instituti

³Andijon davlat pedagogika instituti

⁴Namangan davlat universiteti

⁵O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti

Annotatsiya: Hozirda ishemiya sharoitida yurak mitoxondriyasi membranasi lipidlarining perekisli oksidlanish intensivligi ortishi, ATF sintezi kamayishi, antioksidant ferment faolliklari o‘zgarishi va mPTP o‘tkazuvchanligini ortishi o‘rganilgan [3]. Ammo eksperimental ishemiya sharoitida kalamush yurak mitoxondriyasi funksional buzilishlariga *Iridaceae* oilasiga mansub *Crocus sativus* L. o‘simligidan ajratib olingan SFL va *Fabaceae* (*Leguminosae*) oilasiga mansub *Alhagi canescens* (Regel) B. Keller & Shap. o‘simligidan ajratilgan narsissin flavonoidlarning ta’siri o‘rganilmagan.

Kalit so‘zlari: Kardiomiotsit, izdan chiqishi, faol, nobud bo‘lish, mitoxondriya, ishemiya, *Iridaceae*, *Crocus sativus* L, *Fabaceae*, *Alhagi canescens*, yurak, patofiziologik.

Abstract: Currently, in the conditions of ischemia, the intensity of peroxide oxidation of lipids of the heart mitochondria membrane increases, ATF synthesis decreases, antioxidant enzyme activities change, and mPTP permeability increases [3]. However, in the conditions of experimental ischemia, SFL isolated from the plant *Crocus sativus* L. belonging to the family *Iridaceae* and *Alhagi canescens* (Regel) belonging to the family *Fabaceae* (*Leguminosae*) B. Keller & Shap. The effects of flavonoids isolated from the plant *Narcissin* have not been studied.

Key words: Cardiomyocyte, derailment, active, death, mitochondria, ischemia, *Iridaceae*, *Crocus sativus* L, *Fabaceae*, *Alhagi canescens*, heart, pathophysiological.

Аннотация: В настоящее время в условиях ишемии увеличивается интенсивность перекисного окисления липидов мембраны митохондрий сердца, снижается синтез АТФ, изменяется активность антиоксидантных ферментов, увеличивается проницаемость мПТФ [3]. Однако в условиях экспериментальной ишемии СФЛ выделен из растений *Crocus sativus* L., принадлежащих к семейству *Iridaceae*, и *Alhagi canescens* (Regel), принадлежащих к семейству *Fabaceae* (*Leguminosae*) B. Keller & Shap. Эффекты флавоноидов, выделенных из растения Нарциссин, не изучались.

Ключевые слова: Кардиомиоцит, крушение, активный, смерть, митохондрии, ишемия, *Iridaceae*, *Crocus sativus* L, *Fabaceae*, *Alhagi canescens*, сердце, патофизиологический.

Patologik sharoitda miokard strukturasi yuzaga keluvchi gipertrofiya holati va fibroz ta’sirida alohida kardiomiotsitlarning nobud bo‘lishi sohalarida miokard qisqarish kuchining susayishi qayd qilinadi. Asta-sekin rivojlanib boruvchi yurak yetishmovchiligi yuzaga keladi, bu o‘z navbatida kardiomiotsitlarda energiya almashinuvining izdan chiqishi, Ca²⁺ ionlari transportining buzilishi, kislorodning faol shakli hosil bo‘lishining kuchayishi, (mitochondrial

permeability transition pore- *mPTP*) ochiq konformatsiya holatiga o‘tishi kabi jarayonlar bilan birgalikda amalga oshadi [1; 2]. Biroq *mPTP*ning funksiyasi haligacha to‘liq aniqlik kiritilmagan masalalardan biri sifatida qolmoqda, ya’ni zararlangan hujayralarda hayot faoliyatining saqlab qolinishiga yo‘naltirilgan mexanizmlar yoki hujayralarning dasturlashtirilgan tartibda nobud bo‘lishida mitoxondriyaning funksional jihatdan tutgan o‘rniga to‘liq oydinlik kiritilmagan. Hozirda ishemiya sharoitida yurak mitoxondriyasi membranasi lipidlarining perekisli oksidlanish intensivligi ortishi, ATF sintezi kamayishi, antioksidant ferment faolliklari o‘zgarishi va *mPTP* o‘tkazuvchanligini ortishi o‘rganilgan [3]. Ammo eksperimental ishemiya sharoitida kalamush yurak mitoxondriyasi funksional buzilishlariga *Iridaceae* oilasiga mansub *Crocus sativus* L. o‘simligidan ajratib olingan SFL va *Fabaceae* (*Leguminosae*) oilasiga mansub *Alhagi canescens* (Regel) B. Keller & Shap. o‘simligidan ajratilgan narsissin flavonoidlarning [4] ta’siri o‘rganilmagan.

Tadqiqot usullari va materiallari. Tajribalar zotsiz oq, vazni 180-200 g bo‘lgan erkak kalamushlarda *in vivo* sharoitlarida olib borildi. Tajriba guruhi hayvonlari 4 guruhga ajratildi: I guruh nazorat (sog‘lom), II guruh tajriba (ishemiya model), III guruh tajriba (ishemiya+narsissin), IV guruh tajriba (ishemiya+SFL). Kalamushlarda ishemiya modelini hosil qilish uchun II, III va IV guruh tajriba hayvonlarning tana vazniga nisbatan 100 mg/kg adrenalinning 0,1 ml 0,1% eritmasidan qorin teri ostiga 3 kun davomida yuborildi. Ishemiya modeli chaqirilgan kalamushlarni yurak funksiyasida bo‘ladigan patofiziologik o‘zgarishlarni aniqlash uchun elektrokardiogramma qilindi. Tajriba hayvonlarida ishemiya modeli hosil bo‘lganligiga ishonch hosil qilingandan keyin ularning III guruhiga narsissin flavonoididan 10 mg/kg va IV guruhiga esa SFL flavonoididan 10 mg/kg miqdorda 7 kun davomida peroral yuborildi. Shundan so‘ng, tajriba hayvonlarini yana elektrokardiogramma qilindi. Ularning kardiogrammasida tiklanish jarayoni kuzatilganligi aniqlangandan so‘ng, kalamush yurak to‘qimasidan mitoxondriyalari differensial sentrifugalash usuli bo‘yicha ajratildi [5].

Olingan natijalar. Mitoxondriya shikastlanishining juda muhim morfologik belgisi ularning shishishi hisoblanadi. Mitoxondriyalarning shishishi, masalan, yurak yetishmovchiligidagi miokard hujayralarida, shuningdek ko‘plab yuqumli, gipoksik, toksik va boshqa patologik jarayonlarda kuzatiladi. Jumladan eksperimental ishemiya sharoitida yurak mitoxondriyasi bo‘kishiga flavonoid birikmalarni korreksiyalovchi ta’sirini aniqlash maqsadida quyidagi tajriba olib borildi. Yurak mitoxondriyasi bo‘kishini chaqirishda induktor sifatida Ca^{2+} ionlarini 20 mkM konsentratsiyasidan foydalanildi. Sog‘lom (I guruh) kalamushlar yurak mitoxondriyasining 20 mkM $CaCl_2$ yordamida chaqirilgan bo‘kishi nazorat sifatida (100%) olindi. Olingan natijalarga ko‘ra, ishemiya modeli chaqirilgan II guruh hayvonlar yurak mitoxondriyasi bo‘kishi nazoratga (I guruh) nisbatan $94,1 \pm 5,5\%$ ga ortganligi aniqlandi.

Eksperimental ishemiya natijasida yurak mitoxondriyasi Ca^{2+} yuklamasini ortishi va membrana stabilligini yo‘qolishi kuzatiladi, bu esa *mPTP*ning yuqori o‘tkazuvchanlik holatini ta’minlaydi. Eksperimental ishemiya chaqirilgan III guruh hayvonlari narsissin flavonoidi bilan (10 mg/kg) va IV guruh hayvonlarni esa SFL (10,0 mg/kg) flavonoidi bilan sutkasiga bir marta 7 kun davomida peroral yuborilishi natijasida ularning yurakdan ajratilgan mitoxondriyasining bo‘kishini ishonchli kamaytirishi ma’lum bo‘ldi. Bunda narsissin va SFL ta’sirida yurak mitoxondriyasi bo‘kishi ishemiya modeliga (II guruh) nisbatan mos ravishda $42,5 \pm 1,8\%$ va $63,4 \pm 2,5\%$ ga ingibirlashi aniqlandi.

Demak, ishemiya sharoitida narsissin va SFL flavonoidlari yurak mitoxondriyasining Ca^{2+} ionlari yordamida bo‘kishini ishonchli ingibirladi. Bu esa yurak mPTPning yuqori o‘tkazuvchanligini permeabilizatsiya qilinganligidan dalolat beradi. Umuman olganda ishemiya sharoitida kardiomiotsitlarda erkin yog‘ kislotalarini miqdori ortishi kuzatiladi [6]. Miokard shikastlanishining turli eksperimental modellari erkin yog‘ kislotalari to‘planishi, hujayra ichidagi fosfolipazalar faolligi va mitoxondriya darajasida miokard energiya almashinuvining saqlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Ishemiya sharoitida miokard hujayralarini funksional faolligini buzilishi mitoxondriya membranasi darajasida o‘zgarishlar bilan kechadi. Mitoxondriya membranasi ion transport tizimlari buzilishlari jumladan mPTP o‘tkazuvchanligini ortishi sitozol va matriks o‘rtasida Ca^{2+} ionlari regulyatsisi buzilishiga olib keladi. Natijada matriksdan sitoxrom s ning chiqishi natijasida apoptoz jarayonlarini rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, miokardning qisqarish jarayonlari buzilishi natijasida yurak qisqarish ritmlari izdan chiqishi mumkin. Eksperimental ishemiya sharoitida mitoxondriya ichki va tashqi membranasi lipidlari intensiv ravishda peroksidatsiyalanishi kuzatiladi. Bunda, membrana stabilligi kamayib, ion transport tizimlari o‘tkazuvchanliklari keskin o‘zgarishiga olib keldi. Ushbu patofiziologik jarayonlarni farmakologik regulyatsiyalash maqsadida SFL va narsissin flavonoidlarini ishemiya kalamushlarga yuborildi. Yurak mitoxondriyasining yuqori o‘tkazuvchan parasiga ingibirlovchi ta’siri aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gayibov U., Gayibova S.N., Pozilov M.K., Tuxtaeva F.Sh., Yusupova U.R., Djabbarova Gulchehra M.-K., Mamatova Z.A., Ergashev N.A., Aripov T.F. Influence of quercetin and dihydroquercetin on some functional parameters of rat liver mitochondria // JMBFS -2021. - V.11 (1). – P. 1-7.
2. Ong S-B., Samangouei P., Kalkhoran S. B., Hausenloy D.J. The mitochondrial permeability transition pore and its role in myocardial ischemia reperfusion injury // Journal of microbiology, biotechnology and food scienc Journal of Molecular and Cellular Cardiology – 2015. - V.78 –P. 23-34.
3. Hurst S., Gonnot F., Dia M., Da Silva C.C., Gomez L., Sheu S-S. Phosphorylation of cyclophilin D at serine 191 regulates mitochondrial permeability transition pore opening and cell death after ischemia-reperfusion // Cell Death and Disease – 2020 - V.661. - P. 1-12.
4. Нишанбаев С.З., Шамьянов И.Д., Арипова С.Ф., Сагдуллаев Ш.Ш. Метаболиты растений рода Альгаи / Монография. – 2020. – С. 204.
5. Ахмеров Р.Н. Размельчитель ткани (комбинированный гомогенизатор) с резьбовым ножевым блоком и тканеподающим устройством // Узб. биол. журн. – 1979. – №5. – С. 71-72.
6. Егорова М.В., Афанасьев С.А. Регуляторная роль свободных жирных кислот в поддержании мембранного гомеостаза митохондрий сердца при экспериментальной ишемии миокарда // Бюллетень сибирской медицины – 2012. - №3. – P. 31-38.